



## **BACHADON TANASI SARATONI BILAN OG'RIGAN**

### **BEMORLARDA SEMIRISHNING SARATON BOSQICHIGA TA'SIRI**

*Tursunova Nodira Isroilovna<sup>1</sup>,*

*Omonova Nilufar Orzukizi<sup>1</sup>*

*Toshkent Tibbiyat Akademiyasi<sup>1</sup>*

Bachadon tanasi saratoni— endometriy saraton deb ham ataladi, ko'pincha bachadonning ichki qatlami epitelisida paydo bo'ladi. Bemorda ushbu saraton kasalligini rivojlanish ehtimolini baholashda semizlik, estrogen miqdorining oshishi , qandli diabet va genetik moyillik kabi turli xil xavf omillarini hisobga olish muhimdir.

Tadqiqot maqsadi. Ortiqcha vaznga moyil bo'lgan, bachadon tanasi saratoni bilan og'igan bemorlarda saraton bosqichini o'rganish.

Materiallar va usullar. 2023 yilda Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyat markazining Toshkent shahar filiali poliklinikasida 66 nafar bachadon tanasi saratoni bilan og'igan bemorlar tekshirildi. 66 nafar bemordan TVI (Tana vazni indeksi) darajasi yuqori bo'lgan 34 nafar bemor ajratib olindi. Bemorlarning o'rtacha yoshi  $60,0 \pm 1,5$  yoshni tashkil etadi.

Natijalar. Tanadagi ortiqcha yog ' miqdori estrogen darajasining oshishiga olib kelishi mumkin, bu endometriy saratoni (bachadonning ichki qatlamida) rivojlanishiga olib keladi. Yog ' hujayralari o'smaning o'sishiga yordam beradigan moddalarni ham ishlab chiqarishi orqali organizmda o'sma hujayralarining jadal rivojlanishiga olib keladi. Bemorlarning 34 (51,5%) nafarida semizlik kuzatilgan. Ular orasida 5 (14,7%) nafar bemorda I bosqich (30-35 kg/m<sup>2</sup>), 12 (38,2%) nafar bemorda II bosqich (35-40 kg/m<sup>2</sup>), 16 (47,05%) nafar bemorda III bosqichdagi ( $>40$  kg/m<sup>2</sup>) semizlik qayd etilgan.

Xulosa. Bachadon tanasining saratoni gormonal disbalans bilan bog'liq. Uning rivojlanishi ayol jinsiy gormonlari — estrogenlarning konsentratsiyasiga, ayniqsa ularning muvozanati va ortiqcha miqdoriga bog'liq. Esterogenlarning katta qismi tuxumdonlarda ishlab chiqariladi. Qayta aromataza esterogenlar ishlab chiqarilishida kalit ferment bo'lib hisoblanadi. Aromatizatsiya jarayoni tuxumdonlarda, yog' to'qimasida va kam miqdorda buyrakusti bezi po'stloq qismida sodir bo'ladi. Yog' to'qimasi ko'p miqdorda aromataza fermentini (asosan viseral yog'da) saqlaydi. Shu sababdan ushbu ferment miqdorining oshishi bevosita esterogen miqdorining oshishiga olib keladi. Esterogenlar bachadon tanasi saratonining jadal rivojlanishiga olib keladi.

